

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport Universiteti
"Sport huquqi, ijtimoiy, tabiiy-ilmiy fanlar" kafedrası o'qituvchisi,
R.T.Kazovov tomonidan ishlab chiqilgan "Sport metrilogiyasi" mavzuli
o'quv qo'llanmasiga

"Sport metrilogiyasi" O'quv qo'llanmasi o'quv rejaga muvofiq ishlab chiqilgan bo'lib, u kirish, asosiy qism, foydalanilgan adabiyotlardan iborat. "Sport metrilogiyasi" fani talabalarning sport pedagogik amaliy faoliyatida sportchilarning harakat sifatlarini takomillashtirish uchun jismoniy mashg'ulotlarni samarali tanlashga va sport texnika mahoratini egallash, ularning bajarilishini biomexanik asoslashga, baholashga va gavda holatlarini tahlil qilishga va hisoblashga o'rgatishdan iborat.

O'quv qo'llanmani kirish qismida fanning maqsad va vazifalari, fan bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar, fanning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi va O'quv jihatdan uzviyligi, fanning jismoniy tarbiya va sport hamda ishlab chiqarishdagi o'rni yoritilgan. O'quv qo'llanmani asosiy qismida dastur doirasida o'tilishi rejalashtirilayotgan ma'ruza mashg'ulotlari mavzulari va ularning tafsilotlari, talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etishning shakli va mazmuni, tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning mavzulari, fanni o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar, dasturning informatsion-O'quv ta'minoti hamda tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati o'rin olgan.

O'quv qo'llanmaning ma'ruza materiallari va talabalarning mustaqil ish jarayonini tashkil etish shakli va mazmuni qismida ilmiy tadqiqotlar davomida olinadigan natijalarni umumlashtirish, grafik tasvirlashni o'rganish va tahlil qilish hamda sport faoliyatida ulardan samarali foydalanish yoki ularni muvaffaqitli qo'llash malaka va ko'nikmalarini shakllantirish uchun zarur bo'ladigan nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalarni shakllantirish rejalashtirilgan.

Demak, taqrizga taqdim etilgan "Sport metrilogiyasi" O'quv qo'llanma o'quv dasturi yo'nalish profiliga mos bilim, ko'nikma va malakani shakllantirishga mo'ljallangan bo'lib, uni tasdiqlash uchun tavsiya etish mumkin.

**Toshkent iqtisodiyot va pedagogika
instituti dotsenti, R.T.Kazovov**

U.R.Rustamov

